



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: 3030-3079

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal

2026/4



www.innoworld.net


+998 33 5668868



ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 4, Issue 4
2026

Journal has been listed in different indexings



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:
www.innoworld.net

Uzbekistan-2026

EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA TURIZMDA EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRINI BAHOLASH VA QAROR QABUL QILISH

Majidova Mahliyo Shomilovna

QarDU Iqtisodiyot fakulteti

Turizm yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Email: mahliyomajidova45@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi davrda turizm sohasiga bo'lgan talab ortib borgani sayin, bu soha yildan-yilga tez sur'atlar bilan o'sib rivojlanib bormoqda, ammo uning muvaffaqiyati ko'p hollarda ekologik muhitga bog'liq bo'ladi. Toza havo, yetarli suv manbalari, o'rmonlar va yashillashgan hududlar, chiqindilarni qulay filtrlash tizimi bo'lmagan hududlar turistlar uchun jozibaga ega bo'lmaydi, shuni ham inobatga olish kerakki, agar turistik hududlarda sayyohlar uchun yetarli darajada qulayliklar yaratilmagan bo'lsa, ularning ushbu hududga bo'lgan qiziqishi kamayib ketadi. Shu sababli ham, ekologik omillar turizmdan kelib turadigan daromatga va turistlar soniga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ekonometrik modellashtirish orqali ekologik omillarning turizmga ta'sirini aniqlash va baholash yanada samarali bo'lishi mumkin. Bu yondashuv resurslarni samarali taqsimlash, ekoturizmni rivojlantirish va tabiatga zarar yetkazmasdan turizm strategiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Ekologik degradatsiya, empirik natijalar, determinant, endogenlik, iqtisodiy indikatorlar, optimallashtirish

Kirish: Globallashtirish sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanib kelayotgan tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu soha nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va xalqaro aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatni kasb etadi. Shu bilan birga, turizm faoliyatining kengayishi atrof-muhitga bo'lgan bosimning ortishiga ham olib keladi. Xususan, transport qatnovining ko'payishi, tabiiy resurslardan intensiv tarzda foydalanish va chiqindilar hajmining oshishi ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqdi. Oxirgi yillarda turizmni barqaror rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib, ekologik omillarni hisobga olgan holda qaror qabul qilish zarurati yuzaga kelda. Ayniqsa, ekologik muhit sifati turizm oqimiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy tadqiqotlarda keng yoritib borilmoqda. Ekologik toza hududlar turistlar uchun jozibador ko'rinsa va ularni bu hududlarga bo'lgan talabini oshirsa, atrof-muhitning ifloslanishi esa aksincha turizm talabining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, turizm va ekologiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur o'rganish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur muammoni o'rganishda ekonometrik modellashtirish muhim ilmiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ekonometrik yondashuv yordamida turizmga ta'sir qiluvchi ekologik va iqtisodiy omillarni miqdoriy baholash, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda kelgusidagi rivojlanish tendensiyalarini prognozlash mumkin. Xususan, **GMM**, **VAR** va **panel**

data modellaridan foydalanish orqali qisqa va uzoq muddatli ta'sirlarni aniqlash imkoniyati mavjud.

Asosiy qism: O'zbekiston sharoitida ham turizm sohasi jadal rivojlanib borayotgan bo'lib, uni barqaror rivojlantirishda ekologik omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - turizmga ekologik omillarning ta'sirini ekonometrik modellash asosida baholash va ushbu natijalar asosida samarali qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Turizmni rivojlantirishda bilamizki ekologik muhitning quyidagi 3ta jihati eng muhimlari hisoblanadi:

- **Havo sifati:** Havoning ifloslanishi nafaqat mahalliy odamlarga, balki chetdan keladigan mehmonlarga ham katta zarar yetkazishi mumkin.
- **Suv resurslari:** Toza suv manbalari kam bo'lgan yoki ifloslangan hududlar bu soha uchun mos kelmasligi aniq, zero bunday hududlar atmosferasi ham zararli, ham o'z jozibasini yo'qotgan hisoblanadi.
- **O'rmonlar va ko'kalamzorlashtirilgan hududlar:** Daraxtlar va yashil landshafllarga boy bo'lgan joylar sayyohlarga estetik zavq berish bilan birgalikda, dam olish imkoniyatlarini ham yaratadi. Bundantashqari ular tabiatdagi zaharli gazlarni yutib, o'zidan kislarod chiqaradi va shu tomonlama hududga anchagina foyda keltiradi.

O'zbekistonda turizm sohasi so'nggi yillarda sezilarli o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, **2023-yilda** mamlakat bo'yicha jami hisoblaganda **7 million**dan ortiq xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo'lib, bu ko'rsatkich **2022-yilga** nisbatan qariyb **1,5** barobar oshgan. Ichki turizm ko'rsatkichlari ham yuqori bo'lib, yil davomida **12–15 million**dan ortiq mahalliy sayyohlar mamlakat hududlari bo'ylab sayohat qilgan. **2024-yilda** esa turistlar oqimi **6,5–8 million** atrofida bo'lgan. **2025-yilda** mamlakatga **11,7 million** nafar xorijiy turist tashrif buyurgan bo'lib, bu **2024-yilga** nisbatan sezilarli darajada, taxminan **46,8%** oshgani kuzatilgan. Hududlar kesimida tahlil qilinganda, turizm oqimining asosiy qismi tarixiy-madaniy markazlarda jamlangan. Jumladan, **Samarqand viloyati** yiliga o'rtacha **2 million**dan ortiq turistni qabul qilgan bo'lsa, **Buxoro viloyatida** bu ko'rsatkich **1,5 million** atrofida, Xorazm viloyatida esa **1 millionga** yaqin turist tashrifi qayd etilgan. Shu bilan birga, **Toshkent shahri** va **Toshkent viloyati** ham turizm infratuzilmasi rivojlangan hudud sifatida yuqori ulushga ega bo'lib, umumiy turistlar oqimining katta qismini tashkil etadi.

Mazkur raqamlar turizm faoliyatining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, yuqori turist oqimi mavjud hududlarda transport qatnovi, mehmonxona xizmatlari va rekreatsion zonalardan foydalanish darajasining ortishi ekologik yuklamaning oshishiga olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, turizm va ekologik omillar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellar orqali tahlil qilish, hududlar kesimida barqaror rivojlanishni ta'minlash va resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha qarorlar qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekonometrik modellashtirish ekologik omillar turizm rivojiga qanchalik

ta'sir qilishini aniq baholash imkoniyatini beradi. Eng ko'p ishlatiladigan metodlarga quyidagilr kiradi:

- **Regressiya tahlili:** Ushbu metod orqali biz bir qancha tabiiy omillarni, masalan havo sifati, suv, yashil hududlarni turizm sohasiga qanday darajada ta'sir qilishini aniqlaymiz. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, havo tozaligini turistlar soniga qanchalik samarali ta'siri borligini, yoki chiqindi to'planib qolishini, aksincha zarar yetkazish ehtimoli katta ekanligini aytib o'tishimiz mumkin.
- **Panel ma'lumotlar tahlili:** Bu metod esa bir nechta turistik hududlarni, bir necha yil davomida tahlil qilib o'rganib borish va har yilgi ekologik holat kelayotgan turistlar soniga qanday ta'sir qilib borayotganligini aniqlab olish imkonini yaratadi. Bu usul orqali qaysi hududda qachon yaxshilanish bo'lganini ko'rishimiz mumkin.
- **VAR modeli:** Bu metod biroz murakkab ammo muhim hisoblanadi, ya'ni har ikkala omillarning bir-biriga ta'sirini o'rganadi. Faqatgina bir tomonlama emas, har ikkisi. Misol uchun: Ekologiya turizmga qanday ta'sir ko'rsatadi, yoki turizmning o'zi ham ekologiyaga qanday ta'sir ko'rsatadi. Natijada biz tizim qanday foydali ishlashini to'liq tushunib yetamiz.
- **VECM modeli:** Bu metod esa VAR modelining yanada rivojlangan turi hisoblanadi. Uning mazmuni ham uzoq muddatli bog'liqlikni ko'rsatadi, ya'ni ekologiya va atrof-muhit yaxshilanib borsa, uzoq muddatda turizm ham barqarorlashib, o'sib boradi.

Ekonometrik tahlil natijalari qaror qabul qiluvchilarga bir qancha imkoniyatlarni beradi. Masalan: barqaror bo'lgan turistik zonalarini aniqlab olish, tabiiy resurslarni tejash choralari ko'rish va chiqindilarni samarali boshqarish, ekologik jihatdan xavfsiz bo'lgan hududlarga yangi investitsiyalarni yo'naltirish. Bu yondashuvlar nafaqat iqtisodiy samarani oshiradi, balki atrof-muhitni himoya qilishga ham xizmat qiladi. Misol tariqasida oladigan bo'lsak, O'zbekistonning tog'li va suv resurslariga boy hududlarida turizm rivojlanishida ekologik omillar muhim ahamiyatga ega. Masalan: **Chingan** tog' hududida havo sifati, chiqindi boshqaruvi va yashil hududlar regressiya modeli yordamida tahlil qilingan. Natijada, toza havo va chiqindi tizimi yaxshi bo'lgan hududlarda turistlar soni **30–40%** ko'proq bo'lgan. Bu natija qaror qabul qiluvchilarga resurslarni oqilona taqsimlash va ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha aniq yo'l ko'rsatadi. Empirik natijalar shuni ko'rsatadiki, ekologik omillar turizm rivojlanishida muhim determinant hisoblanadi. Ayniqsa, ekologik barqarorlikni ta'minlash turizm oqimining uzoq muddatli o'sishiga xizmat qiladi. Shu bois, davlat siyosatida ekologik muhofaza choralari kuchaytirish, "**yashil turizm**"ni rivojlantirish va ekologik standartlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, ekonometrik modellash asosida olingan tahlillar qaror qabul qilish jarayonida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali turizm sohasida samarali strategiyalar ishlab chiqish va ekologik omillar ta'sirini kamaytirishga qaratilgan choralarni belgilab olish mumkin.

Turizm va ekologik omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilishda zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda panel ma'lumotlar va dinamik ekonometrik modellar keng qo'llaniladi. Panel ma'lumotlar asosida qurilgan modellar turizmga ta'sir qiluvchi omillarni yanada aniqroq baholash imkonini beradi, chunki ular ham vaqt omilini, ham hududlar o'rtasidagi farqlarni hisobga oladi. Masalan, ekologik sifat, CO₂ emissiyasi, iqtisodiy o'sish darajasi va infratuzilma rivojlanishi kabi determinantlar turizm oqimiga turli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, oddiy regression modellarga nisbatan panel data modellari ko'proq ishonchli va barqaror natijalar beradi.

Shu jumladan **GMM** (Generalized Method of Moments) modeli endogenlik muammosi mavjud bo'lgan holatlarda juda samarali hisoblanadi. Turizm iqtisodiyotida esa ko'pincha o'zgaruvchilar o'rtasida ikki tomonlama ta'sir mavjud bo'ladi, ya'ni turizm ekologiyaga ta'sir qilsa, ekologik holat ham turizmga ta'sir ko'rsatadi. **GMM** modeli aynan shu murakkab bog'liqliklarni hisobga olib, ishonchli va xolis baholar olish imkonini beradi. Shuningdek, kitobda turizmni baholashda iqtisodiy omillar bilan bir qatorda ekologik omillarni integratsiya qilish muhimligi alohida ta'kidlanadi. Ekologik degradatsiya, tabiiy resurslarning kamayishi va havo ifloslanishi kabi ko'rsatkichlar turizm talabining kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, ekologik siyosatning kuchaytirilishi va barqaror rivojlanish choralari turizmning uzoq muddatli o'sishini ta'minlaydi. Umuman olganda, berilgan ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, turizm tizimini to'liq tushunish uchun faqat iqtisodiy omillar emas, balki ekologik va institutsional determinantlarni ham birgalikda ekonometrik modellar orqali tahlil qilish zarur. Bu esa qaror qabul qilish jarayonida yanada aniq va ilmiy asoslangan natijalarga erishish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan nazariy va metodologik yondashuvlarni amaliy jihatdan tasdiqlash maqsadida O'zbekiston sharoitida olib borilgan empirik tadqiqot natijalariga murojat qilish maqsadga muvofiqdir. Xususan, mamlakatda yashil turizm rivojlanishini baholashda ekonometrik modellar usullaridan foydalanilib, turizm ko'rsatkichlari, ekologik omillar va iqtisodiy indikatorlar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Ushbu tahlillar **2010–2024** yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, ularning natijalari yuqorida keltirilgan nazariy qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'zgaruvchilar o'rtasidagi dinamik bog'liqlikni aniqlashga qaratilib, buning uchun **VAR** modeli qo'llanilgan. Model natijalari shuni ko'rsatadiki, turizm rivoji va ekologik omillar o'rtasida o'zaro ta'sir mavjud bo'lib, ayniqsa ekologik holatning yaxshilanishi turizm oqimining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim holatlarda turizm faoliyatining ortishi ekologik yuklamaning oshishiga olib kelishi mumkinligi ham aniqlangan. Bu esa turizm va ekologiya o'rtasidagi ikki tomonlama bog'liqlik mavjudligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, olib borilgan ekonometrik tahlillar asosida kelgusidagi rivojlanish tendensiyalari ham prognoz qilingan. Natijalarga ko'ra, agar ekologik

siyosat va yashil iqtisodiyot tamoyillari izchil amalga oshirilsa, turizm sohasida barqaror o'sish kuzatilishi mumkin. Aks holda, ekologik muammolarning kuchayishi turizm rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud. Shu sababli, turizmni rivojlantirishda ekologik omillarni inobatga olish va ularni ekonometrik modellar orqali muntazam baholab borish muhim ahamiyat kasb etad

O'zbekistonda turizm sohasi jadal rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, **2025-yilda** mamlakatga **11,7 million** nafar xorijiy turist tashrif buyurgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan **46,8 foizga** oshgan. Shu bilan birga, **2025-yilning yanvar-oktyabr** oylarida **9,7 million** turist qayd etilgan hamda ular **197 ta** davlatdan kelgan. Turistlar tarkibida **31–55 yosh** toifasi eng katta ulushni tashkil etib, bu turizmning iqtisodiy faol qatlam bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Hududlar kesimida esa **Samarqand, Buxoro, Xiva** va **Toshkent** shaharlari asosiy turistik markazlar sifatida ajralib turadi.

Xulosa: Ekonometrik modellashtirish ekologik omillar va turizm o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Bu yondashuvlar ekologik muammolarni tez va oson aniqlash, sohadagi bir-qancha strategiyalarni optimallashtirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini beradi. Endilikda ushbu metodlarni hududiy ma'lumotlar orqali boyitib borish, sohani va ekologiyani muvozanatlashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, turizm va ekologiya o'rtasidagi muvozanatni saqlash orqali barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Kelgusida ekologik omillarni yanada chuqurroq tahlil qilish, zamonaviy ekonometrik modellarni qo'llash va yashil turizmni rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Econometric Modelling and Forecasting of Tourism Demand
<https://www.routledge.com/Econometric-Modelling-and-Forecasting-of-Tourism-Demand-Methods-and-Applications/ChenguangWu-Li-Song/p/book/9781032216416>
2. Tourism Economics <https://www.mdpi.com/books/reprint/6656-tourism-economics>
3. Econometric Modeling and Forecasting of Green Tourism Development in Uzbekistan <https://webofjournals.com/index.php/3/article/view/4759>
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi <https://stat.uz>